

**O‘ZBEKISTONDA FAVQULOTDA VAZIYATDA FUQARO MUHOFAZASINI TASHKIL ETISHNING UMUMIY TAMOYILLARI****Rasulov Orifjon Abidjanovich***Jamoat xavfsizligi universiteti magistraturasi tinglovchisi mayor*

**Annotatsiya:** *Maqolada favqulotda vaziyatlar haqida tushuncha, favqulotda vaziyatlarda fuqarolarni muhofazasini tashkil qilish masalalari keng ko‘lamda yoritilib, aholi ehtiyoji hamda shu masalada davlat tomonidan o‘rnatilgan tizim bayon etilgan. Fuqarolarni muhofaza qilish tizimini ta‘minlash borasida tavsiyalar berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Favqulotda vaziyat, tabiiy ofat, texnogen, fuqaro muhofazasi, davlat, falokat, qutqaruv xizmati, ma‘lumot.*

**Аннотация:** *В статье широко освещены понятие чрезвычайных ситуаций, вопросы организации защиты граждан при чрезвычайных ситуациях, описаны потребности населения и установленная государством система в этом вопросе. Даны рекомендации по обеспечению системы гражданской защиты.*

**Ключевые слова:** *Чрезвычайная ситуация, природная катастрофа, техногенная, гражданская защита, государство, катастрофа, спасательная служба, информация.*

**Annotation:** *In the article, the concept of emergency situations, the issues of organizing the protection of citizens in emergency situations are widely covered, the needs of the population and the system established by the state in this matter are described. Recommendations have been made regarding the provision of the civil protection system.*

**Key words:** *Emergency situation, natural disaster, man-made, civil protection, state, disaster, rescue service, information.*

*Fuqaro muhofazasining hozirgi zamon sharoitidagi vazifalari va ahamiyati.*

Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning qonuniy asosini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari va Favqulodda vaziyatlar vazirining ko‘rsatma va boshqa tegishli me‘yoriy hujjatlari tashkil etadi.

Bizga ma‘lumki, XX asrning 60-yillaridan fuqaro mudofaasi tizimi faoliyat ko‘rsatib kelgan.<sup>18</sup> Uning asosiy vazifasi tinchlik davrida va urush sharoitida mamlakat aholisini yalpi qirg‘in qurollari va boshqa hujum vositalaridan himoya qilish, urush sharoitida iqtisodiyot ob‘ektlarining barqarorligini ta‘minlash hamda halokat o‘choqlarida qutqarish va tiklash ishlarini o‘z vaqtida samarali amalga oshirishdan iborat edi. Lekin aholi hayotiga faqatgina ommaviy qirg‘in qurollari emas, balki boshqa xavf-xatarlar ham tahdid solib turadiki, ularni aslo nazardan chetda qoldirish mumkin

<sup>18</sup> «Современное состояние и перспективы развития Гражданской защиты», Ташкент, ИГЗ, 2006 год.

emas. Bular turli biz soʻz yuritayotgan favqulotda vaziyat mavzusining tabiiy ofatlar, texnogen va ekologik tUSDagi halokatlardir. Sodir boʻlib oʻtgan bir nechta halokatlarda (Chernobil atom elektr stansiyasidagi avariya, 25 000 odamning yostigʻini quritgan Spitak zilzilasi va boshq.) fuqaro mudofaasining oʻrni va vazifalariga boshqacha koʻz bilan qarash kerak ekanligini koʻrsatib berdi. Fuqaro mudofaasi qoʻshinlari bunday yirik koʻlamdagi ofatlarga qarshi kurashishga tayyor emas ekanligi, fuqaro mudofaasi vazifalari faqatgina harbiy davr chegarasida qolishligi mumkin emasligi, ular oldiga qoʻyilgan vazifalar koʻlamini kengaytirish lozimligi ayon boʻlib qoldi.

90-yillarga kelib yadro urushi xavfi kamaydi, biologik qurollardan foydalanish cheklab qoʻyildi, yangi-yangi zamonaviy qurol turlari kashf etildiki, ular odamlar uchun xavfli boʻlmay, balki iqtisodiyot obʻektlarini ishdan chiqarishga qaratilgan edi. Bularning hammasi fuqaro mudofaasi tizimi oʻrnida yangi tizim tashkil etilishi lozimligini isbotlab berdi. Shu oʻrinda yana bir masalani oydinlashtirib olishga toʻgʻri keladi. Favqulodda vaziyatning oʻzi nima, undan aholi va hududlarni muhofaza qilish deganda nimani koʻzda tutish lozim?

Favqulodda vaziyat – odamlar qurbon boʻlishi, ularning sogʻligi yoki atrof tabiiy muhitga zarar yetishi, jiddiy moddiy talofatlar keltirib chiqarishi hamda odamlar hayot faoliyati sharoiti izdan chiqishiga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin boʻlgan avariya, halokat, xavfli tabiiy hodisa yoki boshqa tabiiy ofat natijasida muayyan hududda yuzaga kelgan vaziyat.

Prezidentimiz tomonidan olib borilayotgan odilona siyosat tufayli inson manfaati, inson qadriyati eng oldingi oʻrindadir. Asosiy Qomusimiz boʻlgan Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosini ham inson, uning qadr-qimmatini, salomatligi tashkil etadi. Insonning hayoti, yashashga boʻlgan huquqi Konstitutsiya bilan muhofaza qilinadi.

Fuqaro muhofazasi - harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida yuzaga keladigan xavflardan Oʻzbekiston Respublikasi aholisini, hududlarini, moddiy va madaniy boyliklarini muhofaza qilish maqsadida oʻtkaziladigan tadbirlarning davlat tizimi.

Oʻzbekiston Respublikasi Fuqaro muhofazasi tuzilmalari asosiga quyidagi tamoyillar kiritilgan:

-hududiy tamoyil:

Oʻzbekiston Respublikasi maʼmuriy boʻlinishiga qarab, viloyatlar, shaharlar, tumanlarda fuqaro muhofazasi boʻlimlarining tashkil etilishi;

-ishlab chiqarish tamoyili:

vazirliklar, davlat qoʻmitalari, trestlar, koorparatsiyalar, kompaniyalar, assosatsiyalar, tashkilotlar va korxonalarda fuqaro muhofazasi boʻlimlarining tashkil etilishi.

Fuqaro muhofazasi boʻyicha umumiy rahbarlikni Oʻzbekiston Respublikasi Bosh Vaziri olib boradi.

Fuqaro muhofazasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- aholini harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida yuzaga keladigan xavflardan himoyalaniş usullariga o‘rgatish;
- ob‘ektlarni harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida yuzaga keladigan xavflardan himoyalaniş usullariga tayyorlash;
- boshqaruv, xabar berish va aloqa tizimlarini tashkil etish, rivojlantirish va doimiy shay holatda saqlab turish;
- iqtisodiyot ob‘ektlarining barqaror ishlashini ta‘minlash yuzasidan tadbirlar kompleksini o‘tkazish;
- aholini, moddiy va madaniy boyliklarni xavfsiz joylarga evakuatsiya qilish;
- fuqaro muhofazasi harbiy tuzilmalarini shayligini ta‘minlash;
- aholini umumiy va yakka muhofazalanish vositalari bilan ta‘minlash;
- aholini harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatidagi hayot faoliyatini ta‘minlash;
- radiatsion, kimyoviy va biologik vaziyat ustidan kuzatuv va laboratoriya nazorati olib borish;
- qutqaruv va boshqa kechiktirib bo‘lmaydigan ishlarni o‘tkazish;
- harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida zarar ko‘rgan hududlarda jamoat tartibini yo‘lga qo‘yish va saqlab turish;
- aholini va hududlarni muhofaza qilish yuzasidan boshqa tadbirlarni amalga oshirish.

O‘zbekiston Respublikasi fuqaro muhofazasini boshqarish O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligiga topshirilgan.

Qoraqalpog‘iston Republikasi, viloyatlar, tumanlar, shaharlar hududlarida fuqaro muhofazasiga rahbarlik qilishni tegishli lavozimiga ko‘ra fuqaro muhofazasi boshlig‘i bo‘lgan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar hokimlari amalga oshiradi.

Vazirliklar, idoralar va tashkilotlarda fuqaro muhofazasiga rahbarlik qilishni ularning lavozimiga ko‘ra mazkur organlar va tashkilotlar fuqaro muhofazalarining boshliqlari bo‘lgan rahbarlari amalga oshiradilar.

Fuqaro muhofazasi boshlig‘i o‘z vakolatlari:

- fuqaro muhofazasining tegishli rejalarini amalga joriy etish;
- aholini, moddiy va madaniy boyliklarni xavfsiz joylarga evakuatsiya qilish to‘g‘risida qarorlar qabul qilish;
- fuqaro muhofazasi bo‘yicha tegishli direktivalar, buyruqlar, qarorlar va farmoyishlar chiqarish;
- o‘z tasarrufidagi hududlar hamda tashkilotlarning kuchlari va vositalarini fuqaro muhofazasi sohasidagi tadbirlarni o‘tkazishga jalb etish;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Fuqaro muhofazasi boshliqlarining aholi va hududlarni zamonaviy qirg'in vositalari qo'llanishi oqibatlaridan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi sohasidagi tadbirlarni amalga oshirishga oid harakatlarni muvofiqlashtirish tegishli hududlar, tarmoqlar va tashkilotlarning fuqaro muhofazasi boshliqlari zimmasiga yuklanadi.

*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining fuqaro muhofazasi sohasidagi vakolatlari.*

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

-fuqaro muhofazasini rivojlantirish va takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini, ularning moliyaviy va moddiy texnika ta'minoti tartibini tasdiqlaydi;

-tinchlik davrida va urush davrida davlat iqtisodiyoti faoliyat ko'rsatishi barqarorligini ta'minlash tadbirlarini ishlab chiqilishiga va o'tkazilishiga rahbarlik qiladi;

-hududlarni ularda yashayotgan aholi soniga va davlat iqtisodiyotida muhim rol o'ynovchi yoki aholi xavfsizligiga ta'sir ko'rsatuvchi tashkilotlar mavjudligiga ko'ra fuqaro muhofazasi bo'yicha gurhlarga, shuningdek tashkilotlarni davlat iqtisodiyotidagi roli yoki aholi xavfsizligi ta'siriga ko'ra fuqaro muhofazasi bo'yicha toifalarga kiritishi tartibini belgilaydi;

-himoya inshootlarini va fuqaro muhofazasini boshqa ob'ektlarini barpo etish tartibini, shuningdek yakka muhofazalanish vositalari, moddiy texnika, oziq-ovqat, tibbiy va boshqa xil vositalar zahiralarni to'plash va ulardan foydalanish shartlarini belgilaydi;

-davlat organlari va tashkilotlarning fuqaro muhofazasi sohasidagi faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi.<sup>19</sup>

*Vazirliklar va idoralarning fuqaro muhofazasi sohasidagi vakolatlari.*

Vazirliklar va idoralar:

-fuqaro muhofazasining tegishli rejalarini ishlab chiqaradilar va ularning amalga oshirilishiga rahbarlik qiladilar;

-xodimlarni zamonaviy qirg'in vositalaridan himoyalash usullariga va urush davri sharoitidagi harakatlariga tayyorlanishi usullarini o'rgatishini tashkil etadilar;

-zamonaviy qirg'in vositalari tahdid solganda va qo'llanilganda tarmoq xodimlarini muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshiradilar;

-urush davrida tarmoq va iqtisodiyot ob'ektlarini barqaror ishlashini ta'minlash tadbirlarini ishlab chiqadilar va amalga oshiradilar;

-tashkilotlarni xavfsiz zonalarga evakuatsiya qilish rejalarini ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini tashkil etadilar;

<sup>19</sup> Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 21 апрелдаги ЎРҚ-683-сонли Қонун 7-модданинг ўнинчи хатбошиси таҳририда — Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон)

-fuqaro muhofazasi moddiy – texnika, tibbiy va boshqa vositalar zahiralari yaratadilar hamda ularning to‘planishi, saqlanishi, yangilab borilishi va qo‘llanishga shay holatda saqlab turilishi ustidan nazoratni amalga oshiradilar;

-tarmoq fuqaro muhofazasi sohasida mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan o‘zaro hamkorlik qiladilar;

-ob‘ektning fuqaro muhofazasi ahvoli bo‘yicha belgilangan tartibda axborot taqdim etadilar;

-xabar berish tizimini, umumiy va yakka tartibda muhofazalanish vositalarini vujudga keltiradilar hamda ularni doimiy shay holatda saqlaydilar;

-fuqaro muhofazasi holatini nazorat qilib boradilar;

-qonun hujjatlariga muvofiq boshqa tegishli vakolatlarni amalga oshiradilar. <sup>20</sup>

*Mahalliy davlat hokimiyati organlarining fuqaro muhofazasi sohasidagi vakolatlari.*

Mahalliy davlat hokimiyati organlari:

-fuqaro muhofazasi rejalarini ishlab chiqadilar va ularning tegishli hududda amalga oshirilishiga rahbarlik qiladilar;

-tegishli hududdagi tashkilotlar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan fuqaro muhofazasi tadbirlarining bajarilishini tashkil etadilar va nazorat qilib boradilar;

-fuqaro muhofazasi kuchlari va vositalari tayyorlanishini hamda shay holatda saqlab turilishini ta‘minlaydilar;

-tashkilotlar rahbarlari va aholining zamonaviy qirg‘in vositalari qo‘llanilgan paytdagi himoyalash usullariga o‘rgatilishini tashkil etadilar;

-zamonaviy qirg‘in qurollari qo‘llanilgan sharoitda aholi hayot faoliyatining ta‘minlanishini kafolatlovchi fuqaro muhofazasiga oid mol-mulk, moddiy-texnika, oziq-ovqat, tibbiy va boshqa xil zahiralari hajmlarini belgilaydilar hamda ularning to‘planishi, saqlanishi, yangilab borilishi va shay holatda saqlab turilishi uchun javob beradilar;

-urush davrida, idoraviy bo‘ysinishidan qat‘iy nazar, tashkilotlarning barqaror ishlashini ta‘minlash tadbirlarini tashkil etadilar amalga oshiradilar;

-fuqaro muhofazasi sohasida axborot yig‘ish va almashinishi, shuningdek zamonaviy qirg‘in vositalarining qo‘llanilish tahdid yoki qo‘llanilganligi to‘g‘risida aholini o‘z vaqtida xabardor qilinishini ta‘minlaydilar;

-aholini evakuatsiya qilish va bo‘lib-bo‘lib joylashtirishga, uning xavfsiz zonalarga o‘rnashib olinishiga tayyorgarlik ko‘rish hamda shu ishlarni tashkil etish, davolash muassasalari va boshqa tashkilotlar ishini yo‘lga qo‘yish tadbirlarini amalga oshiradilar;

-qutqaruv va boshqa kechiktirib bo‘lmaydigan ishlarni tashkil etadilar va amalga oshiradilar, o‘z tasarrufidagi hududda jamoat tartibini saqlanishini ta‘minlaydilar;

<sup>20</sup> Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 21 апрелдаги ЎРҚ-683-сонли Қонуни 9-модданинг ўн иккинчи хатбошиси тахририда — Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон

-qonun hujatlariga muvofiq boshqa tegishli vakolatlarni amalga oshiradilar.<sup>21</sup>

Tashkilotlar fuqaro muhofazasi sohasidagi vakolatlar.

Tashkilotlar o‘z vakolatlari doirasida:

-fuqaro muhofazasi tadbirlarini rejalashtiradilar va amalga oshiradilar;

-urush davrida barqaror ishlashni ta‘minlash tadbirlarini amalga oshiradilar;

-o‘z xodimlarini harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida vujudga keladigan xavflardan himoyalaniş usullariga o‘rgatishni amalga oshiradilar;

-xabar berish mahalliy tizimlarini yaratadilar va ulardan foydalanishga doimo shay holatda saqlab turadilar;

-xodimlarga fuqaro muhofazasi sohasidagi o‘z majburiyatlarini bajarishlari uchun zarur sharoit yaratib beradilar;

-moddiy – texnika, tibbiyot va boshqa xil vositalarning zahiralari yaratadilar.<sup>22</sup>

Potensial xavfli ishlab chiqarish ob‘ektlariga ega bo‘lgan, shuningdek muhim mudofaa va iqtisodiy ahamiyatga molik tashkilotlar fuqaro muhofazasi tuzilmalarini yaratadilar va ularni doimo shay holatda saqlab turadilar. Bunday tashkilotlarni belgilash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan joriy qilinadi.

Fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining fuqaro muhofazasi sohasidagi ishtiroki.

Fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari:

-fuqarolarning zamonaviy qirg‘in vositalari qo‘llanilgan paytdagi himoyalaniş usullariga o‘rgatilishiga ko‘maklashadilar;

-harbiy harakatlar olib borilishi bilan bog‘lik yoki shu harakatlar oqibatida xavflarning yuzaga kelishi tahdid etgan taqdirda tegishli hududdagi fuqarolar xabardor qilinishini tashkil etadilar;

-aholining hayot faoliyati ta‘minlanishi sohasida tadbirlar tayyorlanishi va bajarilishini amalga oshiradilar;

-qonun hujjatlariga muvofiq boshqa tegishli tadbirlarni amalga oshiradilar.<sup>23</sup>

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, xozirgi vaqtda dunyoda sodir bo‘layotgan turli ko‘rinishdagi favqulotda vaziyatlarni kuzatar ekanmiz yurtimiz hududlari atrofidagi xavfli joylar doimiy hammamizning diqqatimiz markazida turishi, ular to‘g‘risida yetarlicha ma‘lumotga ega bo‘lishimiz zarurligini hozirgi zamon talabidir. Binobarin, birorta xavf-xatar to‘g‘risida yetarlicha axborot tizimi va majmuasiga ega bo‘lganimizdagina, uning oldini olish yoki bartaraf etish chora-tadbirlari ishlab chiqilib,

<sup>21</sup> Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 21 апрелдаги ЎРҚ-683-сонли Қонуни 10-модданинг ўн биринчи хатбошиси тахририда — Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон

<sup>22</sup> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 9 сентябрдаги 754-сон қарорига 1-илова “Аҳолининг барча қатламларини фавқулотда вазиятларда ҳаракат қилишга ва фуқаро муҳофазаси соҳасида тайёрлаш тартиби тўғриси”даги Низом.

<sup>23</sup> Ярашев б. ч. меҳнат муносабатларини локал тартибга солишнинг ўзига хос жиҳатлари //журнал правовых исследований. – 2021. – т. 6. – №. 3.

to'g'ri yondashishga erishiladi. Respublikamizning tabiiygeografik o'rnini kuzatar ekanmiz, har bir mintaqaning turli halokatli maydonlarni qamrab olganligiga guvoh bo'lamiz. Birgina Toshkent viloyati va Toshkent shahrini oladigan bo'lsak, shaharga yo'nalgan barcha suv tarmoqlarining boshlanish qismlari baland tog'liklardan, ayrim joylari abadiy qor va muzlikdan iborat bo'lib, ob-havo keskin o'zgarishi oqibatida bu suv tarmoqlarida toshqin, sel xavflari yoki birgina Chorvoq suv omborini oladigan bo'lsak xavfning yuqori ekanligidan dalolat beradi. Bu esa tezkor amaliy tadbirlar o'tkazishni, shu hududlarda joylashgan aholi o'rtasida xavfli halokatlardan saqlanish yo'llarini targ'ib qilish amaliy ko'nikmalarni oshirishni taqozo etadi. Shunday qilib, Vatanimiz hududida ham ichki, ham tashqi muhitdan zarar yetkazadigan turli tabiiy ofatlar xavfi mavjud ekan, ularni chuqur mulohaza qilish, avvalo oldini olish, bashoratlash va oqibatlarini bartaraf etishda faol qatnashish har bir fuqaroning sharaflari burchi hisoblanadi. Albatta, bunday holatga tushmaslikning birinchi tadbiri o'zimizni va atrofdagilarni to'g'ri harakat qilishga o'rgatishdan iboratdir. Zero, milliy mafkura va milliy g'oyamizning asosi ham, xavfsiz yashash sharoitini ta'minlashga asoslangan.

#### ADABIYOTLAR:

1. «Современное состояние и перспективы развития Гражданской защиты», Ташкент, ИГЗ, 2006 год.
2. O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni 7-moddaning o'ninchi xatboshisi tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)
3. O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni 9-moddaning o'n ikkinchi xatboshisi tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son
4. O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni 10-moddaning o'n birinchi xatboshisi tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 9 sentabrdagi 754-son qaroriga 1-ilova "Aholining barcha qatlamlarini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibi to'g'risi"dagi Nizom.
6. Yarashev B.Ch. mehnat munosabatlarini lokal tartibga solishning o'ziga xos jihatlari //jurnal pravovyx issledovaniy. – 2021. – t. 6. – №. 3.